



Nazar Eshonqul

SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI

Yuz yildan beri tersotaliklarning g'ururi va faxri bo'lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko'rimsizlik va keksalik bag'ishlab turgan, noma'lum va mudhish sinoatlarga to'la qadim qo'rg'onni eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo'q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli buldozerlar uyning devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo'shib, o'zlarining ham nimalarinidir buzib, vayron qilishayotgandek, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdirning beshafqat o'yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg'iz va izziz o'tish azobini ko'tarib kelgan, hayoti o'zlariga hamon tushuniqsiz va mavhum tuyuladigan Bayna momoni eslagan ayollar ko'zlariga yosh olib, bolalarini bag'irlariga bosgancha, olis va g'amgin xotiralarga berilib, mung'aygan alfozda o'tirardilar.

Bayna momo tirikligida, garchi bu ayollarni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim-kechaklari yotgan, polvonning o'limidan so'ng hechqachon chiroq yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong'u musibat to'la uyi ichkarisiga kiritmagan bo'lsa-da, ular qahr va g'azabini sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni hurmat va ehtirom bilan eslashardi. Bu uy Tersotada qurilgan birinchi uylardan edi va Rayim polvonning otasi Shukur oqsoqol bundan bir asr muqaddam tug'ilajak farzandlariga keng uy va yildan-yilga ko'payib borayotgan yilqilarga otxona solish maqsadida Tersota soyining oftobro'yasiga qishloqning birinchi poydevorini qurgandi. Rayim polvon esa otasining ishini davom ettirdi: uyning orqasida bog' barpo etdi va otxona yonida qirga tutashtirib, yozning jazirasidan go'sht va yog'larni, qimiz va ayronlarni asrash uchun keng erto'la, uyning oldiga toshdan baland supacha, ot kirib chiqadigan uzun, ustundor ayvon qurdi. Bayna momo ellik yilga yaqin yolg'izlik davrini ana shu ayvondagi ustunlarga suyanib o'tkazdi: u eri va o'g'lining judolik azobi qiynagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig'lardi. Keyinchalik ko'z yoshlari ham tugab qolgach, hayotida go'yo suyanchig'i va orqasidan yig'lab qoladigani yo'qligini odamlardan yashirish uchun yoki endi yillar silsilasiga dosh berolmay puturdan ketayotgan uyni butkul vayron bo'lishdan asrab qolmoqchidek, elkasini ustunga suyagan holatda xotirasining siniq parchalariga tikilib, ko'zlarini yumgancha g'amginu mustag'riq o'tirardi.

Rayim polvonning o'limidan keyin tug'ilgan va u haqda keyinchalik butkul eslaridan chiqib ketgan cho'pchaklarnigina eshitib ulg'aygan avlod uylarini ravoqli va pishiq g'ishtdan qura boshlagach, bir paytlar Tersotaning ko'rki va g'ururi bo'lib turgan bu uy birdan ko'rimsiz qiyofaga kirdi va endi Bayna momo kabi uy ham qishloqdagi uylar